

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**5-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Г.Н.Давлятова	
Харизматический образ оратора в публичной речи.....	110
Z.V.Alimova	
Navoiyning "Saddi iskandariy" dostonidagi ba'zi antonim so'zlar xususida.....	114
A.A.Qosimov	
Mythopoeic onomastics: a taxonomic paradigm for mythonymic construction in C.S.Lewis's literary corpus.....	119
S.M.Muminov, D.R.Abdumalikova	
O'zbek va ingliz muloqot xulqida disputning lingvokulturologik asoslari.....	127
Sh.S.Mo'minov, N.M.Rahmatova	
Boshqaruvga oid qarashlarning zamonlararo takomili	131
M.O.Obilov	
Akademik diskursda funksional va pragmatik yondashuvlar: nazariy-metodologik asoslar	134
A.O'.Abdullayev	
Kolorativ leksikada ramzlar talqini	138
Б.Мамедова	
Концептуальные основы языковой идентичности и отношений личности и общества в мышлении XX века.....	144



BOSHQARUVGA OID QARASHLARNING ZAMONLARARO TAKOMILI

ЭВОЛЮЦИЯ ВЗГЛЯДОВ НА УПРАВЛЕНИЕ ВО ВРЕМЕНИ

THE DEVELOPMENT OF MANAGEMENT VIEWS OVER TIME

Mo'minov Sherozbek Siddiqjonovich¹ ¹Filologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori PhDRahmatova Nilufar Mahammadyunosovna² ²Tashkent International University of Education" Xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada qadimgi davrlardan hozirgi kungacha insoniyat taraqqiyotining ajralmas bo'lagi bo'lgan boshqaruvning mazmuni, maqsadi va tamoyillari haqida so'z yuritiladi. Tarixda o'tgan podshohlarning siyosiy qarashlari, adolat va tenglik tushunchalarining davrlar osha namoyon bo'lishi, xalq manfaatlarining boshqaruvdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, o'sha davr siyosiy arboblari va mutafakkirlarining boshqaruvga doir fikr va baholari hamda podshohlarning xulosalari tarixiy manbalar asosida yoritilgan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются сущность, цели и принципы управления, являющегося неотъемлемой частью развития человечества с древнейших времён до наших дней. Анализируются политические взгляды прошлых правителей, межвременные проявления понятий справедливости и равенства, а также роль и значение интересов народа в управлении. На основе конкретных исторических источников освещаются оценки политических деятелей и мыслителей того времени, а также выводы и размышления правителей о принципах государственного управления.

Abstract

This article explores the essence, goals, and principles of governance as an integral part of human development from ancient times to the present day. It analyzes the political views of past rulers, the evolving concepts of justice and equality across centuries, and the role and importance of people's interests in governance. The study also highlights the evaluations of political figures and thinkers of earlier periods, as well as the reflections and conclusions of kings, illustrated through examples drawn from authentic historical sources.

Kalit so'zlar: boshqaruv, hukmronlik, tarixiy omillar, xalq mafaati, liderlik, birdamlik, xalq dardi.

Ключевые слова: управление, господство, исторические факторы, интересы народа, лидерство, единство, боль народа.

Key words: governance, dominance, historical factors, people's interests, leadership, unity, people's pain.

KIRISH

Boshqaruv – insoniyat tarixi va taraqqiyotining ajralmas qismi bo'lib, qadimdan bugungi kungacha turli shakllarda namoyon bo'lib kelmoqda. Boshqaruv jarayoni har qanday tizimning samarali faoliyat yuritilishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Asrlar osha boshqaruvga nisbatan qarashlar turlicha bo'lgan. Ba'zi davrlarda boshqaruvga san'at sifatida qaratilgan bo'lsa, ba'zi davrlarda fan sifatida baholangan. Boshqaruv – aniq maqsadlarga erishish uchun yoki guruhlarining faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, rag'batlantirish va nazorat qilish jarayoniga nisbatan qo'llaniladi. Bu jarayon orqali davlat ichidagi ijtimoiy, ma'naviy, ma'rifiy, moddiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ta'limiy, tibbiy jarayonlar oqilona boshqariladi, taqsimlanadi va himoya qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADALOGIYASI

Tarixda o'tgan shunday buyuk siymolar borki, ularning nafaqat davlat, jamiyat boshqaruvidagi qarashlari, yo'nalishlari, qo'llagan taktika va bu boradagi maslahatlarini kitoblar orqali keyingi avlodga meros qilib qoldirganlar. Bu adabiy meroslarni o'qish orqali ko'p jihatdan bilim olish, boshqaruv jarayoni, uning asl ma'nosi va masalasini chuqurroq anglab yetish mumkin. Aynan shunday kitoblardan biri sohibqiron bobokolonimiz Amir Temurning "Temur tuzluklari"

asaridir. Bu asar boshqaruv san'atiga, kengashlarga, odob-axloq tushunchalari va inson shaxsiyati uning so'z san'ati yordamida ko'plab ishlarni amalga oshira olishiga oid asardir. Asarning birinchi maqolasida: "O'zga mamlakatlarni zabt etish, ularni idora qilish, g'anim lashkarlarini sindirish, dushmani tuzoqqa ilintirish, muholiflarni (ko'nglini ovlab) do'stga aylantirish, do'st-dushman orasida muomala, murosa-yu madora qilish xususida ushbu tadbir va kengashlarni qo'lladim..." [3, 14] kabi mulohazalarni keltirish orqali o'zining siyosiy bilimlarini, usullarini meros qilib qoldirganlar. Bu asar ikki qismdan iborat:

1. **Birinchi qism** – Amir Temurning o'zi yozgan (yoki aytib yozdirgan) davlatni boshqarish va harbiy ishlar bo'yicha **amaliy ko'rsatmalar va qonunlar**;

2. **Ikkinchi qism** – sohibqironning o'z hayoti, yurishlari va siyosiy qarashlari haqida **tarixiy-hayotiy, falsafiy mulohazalari** keltirilgan.

Asardagi ilgari surilgan muhim g'oyalar:

- adolat – davlatning tayanchi;
- harbiy intizom va tartib;
- davlatni boshqarishda maslahatlashish;
- ilm va bilim egalariga hurmatda bo'lish;
- soliq tizimi va dehqonlar masalasidir.

Bu asar Markaziy Osiyoda yirik davlat boshqaruvining nazariy asoslarini bayon qilgan ilk yirik siyosiy-huquqiy hujjatlardan biridir. Unda harbiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarga oid aniq tartib-qoidalar berilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Dunyo miqyosida ham boshqaruv san'atining yirik namoyondalari va ularni bu boradagi qarashlari namoyon qilib berilgan asarlari ham talaygina. Misol tariqasida Amerika Qo'shma Shtatlarining tarixiy rivojlanishini belgilab bergan prezidentlardan biri Avraam Linkolinning "Ozodlik manbai. Gettisberg murojaati" asaridir. Bu asarning asosiy g'oyalari:

- tenglik va ozodlik g'oyalari;
- milliy birlik;
- demokratiyaning himoyasidir.

Bu asar, aslida, Avaraam Linkolinning qisqa, ammo chuqur mazmunga ega bo'lgan tarixiy nutqidir. U o'z xalqini birlik, ozodlik, va tenglik sari yetaklagan, demokratiya tamoyillarini himoya qilgan asardir.

Keying o'rinda, yana bir Amerika Prezidenti Frnaklin Ruzveltning "Kamin oldidagi suhbatlar. Inqiroz, oligarxlar va urush haqida" asaridir. Bu asar siyosiy-nutqiy to'plam (radio nutqlar seriyasi) bo'lib, mazmuni quyidagilardan iboratdir:

- iqtisodiy inqirozga qarshi choralar;
- oligarxlarga qarshi kurash;
- urush tahdidi va xalqaro xavfsizlik.

"Kamin oldidagi suhbatlar" – bu og'ir zamonda xalqni ruhlantirgan, muammolardan qochmagan, aksincha, xalqni ularga qarshi kurashga charlab, umid, birlik, harakat ruhini uyg'otgan tarixiy chiqishlardir. 1941-yil aprel Harbor hujumi va urushga kirish haqida xalqqa qarata: "Biz birdamlikda, butun kuchimiz bilan bu tajovuzga qarshi kurashamiz. Bu xalq hech qachon qul bo'lmaydi"[4] – deya xalqni birdamlikka chaqirgan.

Yana bir buyuk siymo Koreya Respublikasi sobiq Prezidenti Li Myon Bak va uning "Mo'jiza sodir bo'lmaydi" nomli esdaliklar kitobidir. Li Myon Bak kambag'al oilada tug'ilgan, yoshligida turli "qora" ishlar bilan shug'ullangan. Oddiy ishchidan prezident darajasiga ko'tarilgan. U qat'iyatli, mehnatkash va intiluvchan bo'lgan. Uning boshqaruvi yo'li ham bevosita insonlarni harakatga, mehnatga chorlagan. U asarida o'z hayot yo'lini real yoritib bergan, shaxsiy qiyinchiliklarini va muvaffaqiyat sari yo'lini ochiq va samimiy tarzda hikoya qilgan. Muvaffaqiyatga erishish uchun:

- mehnat;
- iroda
- intizom

Yo'ldan qaytmaslik kabi fazilatlar muhimligini ta'kudlagan. Asarning bosh g'oyasi: "Mo'jiza yo'q – faqat mehnat, qat'iyat va fidokorlik bor". [1] bo'lgan.

TILSHUNOSLIK

U maqsad sari intilayotgan odamga hech narsa, hatto kambag'allik ham bahona bo'la olmasligini aytib: "Men o'qishga boris uchun ertalab soat 4 da uyg'onib, ko'chada bozor aravasi itarardim. Bu mening orzularimdan kechishimga sabab bo'lmadi" – deb yozgani ham unib-o'sib kelayotgan yoshlarga to'laqonli turtki vazifasini bajara oladi. U rahbarlik borasida ham o'z fikr-mulohazalarini bosib o'tgan tajribalari misolida aniq qilib yoritib bergan. "Rahbar bo'lish – bu boshqalarga buyruq berish emas, ularni ilhomlantirishdir". [1] Li Myon Bak boshqaruvni hukmronlik emas, xizmat va mas'uliyat deb tushunadi. Qo'l ostidagilarga o'ziga nisbatan qo'rquvni shakllantirib, ularni qattiqqo'llik bilan boshqarishga urinadigan rahbarlarni qoralaydi. Aksincha, motivatsiya berish, ularni insoniylik omili bilan tushunishga harakat qilish orqali kutilgan natijaga tezroq erishish mumkinligini uqtiradi. Bu tushunchalar keng mulohazali, fikri teran va o'ziga ishongan insondagina bo'ladi va tabiiyki, uni ortidan ergashuvchilar ham ko'p bo'ladi.

XULOSA

Xulosa o'rinda shuni aytib o'tish joizki, boshqaruv haqidagi qarashlar tarixiy rivojlanish jarayonida doimiy takomillashib kelmoqda. U dastlab amaliyotga asoslangan bo'lsa, keyinchalik ilmiy, tizimli va insoniy omillarga qaratilmoqda. Kunimizda boshqaruv global, innovatsion va raqamli yondashuvlar bilan boyib, uni chuqur anglash, zamonaviy qarashlarni amaliyotda qo'llash har bir davlat yokida tashkilotning muvaffaqiyatli yuritishida muhim omil hisoblanadi. Bu borada tarixdan o'rnak olib, xulosalar chiqargan holda olg'a intilish esa, kelajakdagi muvaffaqiyatning kaliti bo'lib xizmat qilishi shubxasiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бак Л.М. Мўъжиза содир бўлмайди. – Тошкент: ЗУККО КИТОБХОН, 2021.
2. Иличиев Б. соҳибқироннинг бошқарув санъати // Тошкент: ЭКО ҲАЁТ, 2017 йил, 8 март, 5 (314)-сон.
3. Temur tuzluklari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi, 2006.
4. Freside Chats. – Nyu-York: Harward University Press, 1941.